

ISSN 2181-7324

# ЎзМУ ХАБАРЛАРИ



№ 1/6 ♦ 2017

Ижтимоий-  
гуманитар  
файлар  
йўналиши

Направление  
социально-  
гуманитарных  
наук

Social-  
humanitarian  
sciences



ВЕСТНИК НУУЗ ♦ АСТА NUUz

МУНДАРИЖА

Тарих

Алимов Ж.А. Ўзбекистонда от спорти: тарихи ва истикболлари.....	5
Ахророва А.Н. Сомонийлар даври архитектураси ва адабий муҳити тарихини ўрганиш .....	8
Ашурев А., Ибрагимов Ҳ. Гандбол тарихи ва унинг Ўзбекистондаги ривожи .....	11
Бахтиёрзода О.Б. Геология Туркестана в годы первой мировой войны .....	14
Гайбуллаева Ю.А. Ўзбек халки лиbosларида иклим шароити ва моддий-маънавий ҳолатнинг акс этиши (XIX-XX асрлар мисолида) .....	17
Давлатова С. Замонавий этнологияда анъанавий кийимларни ўрганиш методологияси: назарий ёндашувлар ва методлар .....	19
Джураев Д.У. Туркистон халк таълими ташкил этилиши ва бошқарилишининг педагогик хусусиятлари (XIX аср охири – XX аср бошлари) .....	25
Жўраев З.М. Шаркона давлат бошқарув анъаналарининг мантикий давоми .....	29
Ийманова Д.А. Ўзбекистонда қишлоқ хўжалик кадрларини шакллантиришдаги бальзи жихатлар ва уларнинг оқибатлари (XX асрнинг 40-90-йиллари).....	33
Qodirov Q. DND yoki ko‘ngilli posbonlar tarixidan .....	37
Мансуров М. Фарғона вилоятида миллий фольклор туризмини ривожлантириш имкониятлари.....	39
Мачин Г.В. Избрание Н.А. Мухитдинова первым секретарем ЦК: опыт исторической характеристики (штрихи к политическому портрету).....	43
Насиров О.Н. “Ўзбекпахта” акциядорлик жамияти фаолияти (1925-29 йй) .....	53
Орзиев М.З. Бухорода даврий матбуотининг шаклланиши (XX аср бошлари) .....	55
Смесова Е.А., Абдураззакова Г. Русское медицинское общество в Ферганской долине (в конце XIX-начало XX вв.) .....	59
Тураева С.Р. Бухоро хонлигига тоғ-кон ишлари ва олтин олиш усуллари.....	63
Турсунов И.Н. Сурхон воҳаси аҳолисининг моддий маданиятида ҳунармандчиликнинг ўзига хос жихатлари .....	68
Хакимова С.Б. Сведения о Кокандском ханстве в мемуарных источниках (на основе произведения «Тарихи Аликули Амирлашкар») .....	72
Хакимова Ш.С. Ўзбекистонда мактабгача таълим муассасалари тарихига доир .....	75
Ҳамидова М.С. Амир Темур боғларининг ўрганилиши .....	78
Ҳашимова Г.У. Туркистон АССРнинг биринчи “қонуний асоси”.....	82
Ходжамбердиев Ҳ.Э. Развитие профсоюзного движения в Узбекистане (конец 50-х начало 70-х годах XX века).....	85
Холлиев А.Г. Из истории проникновения зарубежного капитала в экономику России во второй половине XIX – начале XX в .....	88
Холов В.Ю. АҚШда Ўрта Осиёни ўрганувчи тадқиқот марказларининг шаклланиши ва фаолияти тарихидан .....	92
Ҳайдаров Д. Ўзбекистонда ресурс шаҳарларининг шаклланиш тарихи: совет даври ривожланиш тажрибаси .....	95
Ҳайитов Ж.Ш. Туркистон минтақасида янги экин навлари таркалиш тарихидан (XIX аср 2 ярми – XX аср бошлари) .....	100
Эшонкулов Ш.Э. Зарафшон воҳаси аҳолисининг этногенези, этнологиясининг ўрганилиш тарихи ва манбалар бўйича талкини .....	104
Yusupova D.J. O‘rta Osiyoning tarixiy-kartografik jihatdan yoritilishi .....	108
Фалсафа	
Абдуазимова З.А. Экологик ахлоқ қадриятларини шакллантиришга глобаллашувнинг таъсири .....	111
Аметов Т.А. Выборы на многопартийной альтернативной основе как цель демократизации .....	114
Аннамуратова С.К., Марданов З. Современные проблемы и критерии профессиональной подготовки учителей биологии на основе модульной технологии.....	118
Асланова О.П. Таълим жараённида ўқитувчининг тафаккур тезлиги ҳамда унинг амалиёт билан уйғунлиги.....	121
Атавуллаев М.А. Модернизация ва шаркона эволюцион тараққиёт .....	124
Atamuratov R. Virtual muzeylarning rivojlanish istiqbollari.....	129
Ахророва З. Ўзбекистонда медиатайлим истикболлари .....	132
Бабаниязова М.Ю. Инновацион фаолиятда креативликнинг аҳамияти .....	135
Бердиев Б.Р. Социал стратификация мазмуни ва моҳияти .....	139
Гаибназарова С.Э., Дониёрова К.Б. Содержание и сущность концепции духовности и её критерии выдвинутая первым президентом Исламом Каримовым .....	143
Ғаниева Х. Талабаларда аҳборотларни қайта ишлаш тезлиги бош мия ярим шарлар пўстлоғидаги нерв жараёнларига боғликлиги.....	146
Давронова Д.С. Миллий истиқтол мағкураси асосида оиласда ўшларнинг гоявий-сиёсий маданиятини шакллантириш .....	151
Жабборов У.А. Некоторые параметры внедрения педагогического опыта зарубежных стран в подготовке учителей английского языка .....	153

## VIRTUAL MUZEYLARNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Atamuratov R. \*

## REZUME

*Mazkur maqolada virtual muzeylarning rivojlanish istiqbollari haqida fikr yuritilgan. Virtual muzeylar haqida qarashlar, virtual muzeylar yaratish bosqichlari va qo'llash usullari samarali ekanligi asoslab beriigan. Virtual muzeylardan foydalanish orqali insonlarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, moddiy va madaniy qadriyatlarni zamonaviy axborot texnologiyalari orqali kelajak avlodga yetkazish, virtual sayohatlar tashkil etish va o'tkazishlarda tasvirlab berilgan.*

**Kalit so'zlar:** virtual muzey, multimediali muzey, veb-muzey, virtual sayohat, 3D – muzey.

Hozirgi kunga kelib butun jahon muzeylari oldida XXI asr muzeyi qanday bo'lishi va tashrifchilarni qanday jalb qilishi kerak, degan muammoli masala turibdi. Muzey eksponatlarini endilikda nafaqat moddiy jihatdan namoyish etish, balki ularni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida surli usullarda taqdim etish imkonini tug'ildi. Hozirgi vaqtida muzey ishida zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari o'rni va ahamiyati juda yuqori bo'lib bormoqda. Bunga misol qilib internet surmog'iga joylashtirilgan virtual ko'rinishdagi muzeylar bo'lib, u har bir insonga kompyuter qurshisidan uzoqlashmagan holda dunyo muzeylariga virtual sayr etish imkoniyati yaratilmoqda.

O'zbekistonda 1998-yil 12-yanvardagi qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va millashtirish to'g'risida"gi qonun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi va "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil etish, zamonaviy texnika vositalarini tatbiq etish, dan samarali foydalanishga oid dasturlar ishlab chiqish va virtual muzeylarni yaratishga ko'makiashish bilan[1].

Zamonaviy hayotda muzeylar an'anaviy funksiyalardan biroz chetga chiqib, jamiyatda faol ishtirot etishiga ko'mak beruvchi yanada dasturlarni amalga oshirish kerak[2].

Zamon o'zgargani sayin u bilan birga insonlarni ham o'zgarib bormoqda. Shu bois muzeylardagi eksponatlarga ham boshqacha ko'z bilan qaraladigan bo'ldi. Muzeylar bo'sh vaqtini qiziqarli o'tkazish uchun bo'lgan maskanga aylanib bormoqda. Bu muzey ishida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish natijasidir.

1990-yillarda muzeysunoslikka kirib kelgan "virtual muzey" iborasi bugungi kunga kelib zamonaviy shunoslikning butun boshli yo'naliishiga aylanib qoldi. Virtual shakl texnologiyasi 1977-yilda chuset texnologiya instituti tomonidan birinchini bo'lib "Aspen Movie Map" virtual tizimi rejasidan tashdalanildi. Dastlabki yillarda ushbu ibora unchalik tarhanlarli bo'limasada, lekin chiroyli va yoqimli yangrashni "Virtual" so'zi "haqiqiy, real" ma'nolarini aylantadi. Aslida "Virtual" so'zi qadimgi lotincha "virtual" – xayoliy tasavvur qilish, faraz qilish uchun kelib chiqqan[3].

Virtual muzeylar yaratish texnologiyalari da bir qator muzeysunos va olimlar ilmiy

izlanish olib borishgan. Bularga K.Valchak, G.Miller, J.Boven, Martin Uayt, A.V.Lebedev, A.Budko, D.Filonov, T.E.Maksimova, D.E.Suprun, B.Xodjayev, J.Ismailova va boshqalarni kiritish mumkin.

Kshishtof Valchakning fikricha, virtual muzeylarni yaratish tashrif buyuruvchilar sonini oshirish, ular qatorida turli yoshdagi o'quvchilar va imkoniyati cheklangan insonlar ham muzeyle ko'rgazmalari bilan tanishishi va virtual sayohat qilish imkonini, noyob eksponatlar saqlanadigan muzeylega kirish qiyinchiliklari oldini olish va yaqindan tanishishga zamin yaratadi[4].

A.V.Lebedev tadqiqotlariga ko'ra, aniq loyiha asosida muzey eksponatlarini va tarixiy shaharlardagi turistik yodgorliklar tasvirini 3d o'lchamli elektron ko'rinishda saytga joylashtirish va bu orqali tashrif buyuruvchi nafaqat eksponatlarning turli burchaklardagi ko'rinishini, balki muzey binosining ham umumiy ko'rinishi haqida tasavvurga ega bo'ladi[5].

A.Budko fikricha, muzeylarni modernizatsiyalashda yangi proektlar yaratish, muzeylararo xalqaro ahamiyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Muzeylarni modernizatsiyalash – bu konseptual strukturaviy va texnologik o'zgarishlar tizimi bo'lib, muzeylarni mavjud hayotiy oqim va kelajak bilan ta'minlaydi[6].

D.Filonov fikricha, har bir virtual muzey o'z qarashlaridan kelib chiqqan holda, multimedia kontenti loyihalarini ishlab chiqish va bu yangi loyiha tomoshabinlar va muzey xodimlari uchun keng imkoniyatlar yaratishi zarurdir[7].

I.G.Elerer tadqiqotlariga ko'ra virtual muzeylar inson ongiga bevosita ta'siri bo'lib, dunyoqarashi, axloq va hayot tarzini anglashi, madaniyat shakkllariga yangicha munosabat tuyg'ularini uyg'otishi, hamkorlikda virtual sayohatlar tashkil etishlari va yodgorliklar bilan yaqindan tanishish imkoniyatlarini yaratadi[8].

Virtual muzey – muzey eksponatlarini namoyish etish uchun moslashtirilgan veb-sahifa turidir. Virtual muzeylar eksponatlarni saqlash, ularning xavfsizligi va omma uchun hammabopligi masalalarini hal qilish uchun axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan muvaffaqiyatli misollaridan biridir.

Virtual muzeyning yaratishdan asosiy maqsad – madaniy makon yaratish va insonlarning madaniy bilimlarini shakkllantirish, moziy namunalarini keng ommaga taqdim etish, muzeylarga tashrif buyurishga jalb etish, virtual sayohatlar tayyorlash va o'tkazishlardan iboratdir.

Virtual muzeylar yaratish uchun eng avvalo, loyihalashtirish va uni amalga oshirish bosqichlari, qaysi internetga joylashtirish va virtual turlarni amalga oshirish texnologiyalari va interaktiv muloqot shakllari qisqa qilib aytganda algoritm ishlab chiqish talab etiladi.

Virtual muzeylar yaratish algoritmining mazmuni va mohiyati shundaki, muzeylardagi eksponatlarni saqlash, himoyalash, keng, tez va osonlik bilan tomosha qilish, ularni kattalashtirish, yaqindan ko'rish, o'ziga xos tuzilishini aniq bilish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Birinchi virtual muzeylar sahifalari internetda 1991-yilda paydo bo'la boshladi. Virtual muzeylar xaqiqiy muzeylarning veb sahifalari bo'lsada, keyinchalik shaxsiy veb-muzey sahifalari ham paydo bo'la boshladi. Buning mantiqi shundaki, agarda uyni uy muzeyi qilish mumkin bo'lsa, uy-sahifasi ham muzey-sahifasi bo'lishi mumkin. Ilk o'zini virtual muzey deb e'lon qilgan shaxsiy virtual muzey sahifasi 1994-yilda paydo bo'ldi. Lekin barcha suratlar to'plami ham virtual muzey bo'la olmaydi. Virtual muzeylarning to'plamlari ikkita o'ziga xos xususiyatga: virtual tur va eksponatlarni kengaytirilgan tarzda izlash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Microsoft kompaniyasining asoschisi Bill Geyts muzey veb-sahifalarining imkoniyatlarini birinchilardan bo'lib anglagan shaxs edi. U 1989-yildan boshlab Corbis soxta firmasi orqali sa'nat buyumlari, tarixiy artefaktlar va qimmatli qo'lyozmalarining yuqori sifatli raqamli suratlariga bo'lgan xuquqlarni sotib ola boshladi. Muzey veb-sahifalarining ommabopligi shu darajada yuqori bo'ldiki, ICANN ular uchun alohida eng yuqori darajali "museum" domenini ajratib beradi.

Virtual muzeyga tashrif buyurish jarayoni haqiqiy muzeyga qatnash jarayoniga nisbatan qator afzalliliklarga ega bo'lgan "Virtual turlar" yordamida amalga oshirildi. Virtual turlar foydalanuvchiga noyob ekskursiyani, masalan fondlar bo'ylab tanishish imkoniyatini yaratadi.

Bundan tashqari, virtual muzeylarga istalgan vaqtida tashrif buyurish, virtual turning to'xtagan joyiga qaytish imkoniyati va erkin tartibda buyruqlarsiz bemalol muzey eksponatlarini tomosha qilib yurish mumkin.

Aksariyat virtual muzeylar jumladan, xorijiy virtual muzeylar sahifasi o'z tuzilmasiga ega. Bu tuzilma virtual muzey bo'ylab qisqacha yo'll ko'rsatgichi, joriy va kelgusidagi ko'rgazmalar to'g'risida qo'shimcha yangiliklarni jamlab olgan bo'ladi. Virtual muzey sahifasining tuzilmasi quyidagicha bo'ladi:

- Qachon tashrif buyurish mumkinligi to'g'risida ma'lumot;
- muzey tarixi;
- eksponatlar va ayrim buyumlar;
- muzeyning doimiy ekspozisiyasi;
- ko'rgazmalar.

Virtual muzeyning yana bir o'ziga xos jihat shundan iboratki, tomoshabin "virtual muzeyga o'z kompyuteri orqali kiradi, u bilan bevosita muloqot qiladi va o'z ongida yaratgan yangi voqelikka sho'ngiydi. Aynan virtual muzeyning "yangi voqeligida" inson tomoshabindan "yangi voqelik" qatnashchisiga aylanadi, bu yerda unga hech kim, na boshqa qatnovchilar, na muzey xodimlari halal bermaydi. Bundan tashqari virtual muzeyni istalgan vaqt oralig'ida tomosha qilish imkoniyatlarini beradi".

Virtual muzey, azaldan qog'oz yoki magnitli vositalarga yozilib o'rganilgan va vaqt o'tib yo'qolib ketishi mumkin bo'lgan nodir arxiv axborotlarini saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni virtual muzey, xaqiqiy muzeylar uchun dolzarb hisoblanadigan o'z namunalarini saqlash masalasini bartaraf etadi. Shu bilan birga virtual muzeyda har qanday axborotni saqlash uchun zarur bo'lgan joy umuman cheklanmaydi.

Bu ko'rinishdag'i virtual muzeylarni yaratish muzeylarga bo'lgan qiziquvchilar sonini faqat ko'paytiradi va madaniy meroslarni kelajak avlodga avaylab asrab yetgazishga, saqlashga va madaniy hayotni yangi bosqichga chiqqanidan dalolat beradi.

Yuqoridagi fikrlarni e'tiborga oladigan bo'lsak, Virtual olamning yangicha haqiqati bo'lgan virtual muzeylarning o'rni va foydasi beiqiyosdir. Shu tufayli, virtual muzeylarni yaratish yosh avlod ongida milliy g'urur va iftixon, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda yuksak samaralar berishi aniqdir.

## ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 6 том, Давлат илмий нашриёти, 2003. Б.115.
2. Квебекская декларация: основные принципы новой музеологии//Museum. 1985. № 148. С.21
3. Д.Курбонова. Замонавий музейшуносликда виртуал кўргазмаларнинг истиқболлари. // Ўзбекистон музейлари истиқболи. Илмий кўлланма. – Т.: «Akademnashr», 2013. – Б.38.
4. K.Walczak. Virtual museum exhibitions- Computer, 2006. Page 93.
5. Лебедев А.В. Виртуализация музея или новая предметность?/. Музейное проектирование/. Лаборатория музеиного проектирования, Российский институт культурологии Москва 2009. С.83.
6. Будко А. Модернизация. Схематизация опыта. Мир музея. Москва. 2010. №12 (280). С.50-51.
7. Д.Филонов. Компьютерная эра в музее. Мир музея. Москва. 2009. №5(261). С.266.
8. I.G.Eliner, Multimedia culture and modern society. St. Petersburg: Native land, 2008. Page 9.

## РЕЗЮМЕ

В статье освещаются вопросы развития виртуальных музеев, также в ней рассмотрены научные взгляды о виртуальных музеях, этапы создания и методы применения виртуальных музеев. В статье научно обоснована необходимость создания виртуальных музеев, о их роли в развитии творческого таланта людей.

о необходимости передачи грядущему поколению материальных и духовных ценностей по средству информационных технологий, о проведении виртуальных экскурсий и т.д.

**Ключевые слова:** виртуальный музей, мультимедийный музей, веб-музей, виртуальное путешествие, 3D-музей.

#### RESUME

The article deals with the prospects of development of virtual museums. It is given fact that the productive methods and stages of creating of virtual museums and the point of views about them. It describes organizing of virtual adventure and provides physical and mental customs for the youth to advance creative capability of people through the usage of virtual museums via up to date modern technologies.

**Key words:** virtual museum, multimedia museum, web museum, virtual adventure, 3D-museum.